

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

NARZULLOYEV MUXAMMAD AZAMATOVICH

**QOVUSHQOQ-ELASTIK TO‘LDIRUVCHILI UCH QATLAMLI
PLASTINKALARNING TEBRANISHLARI VA TO‘LQIN TARQALISHI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавние автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Narzulloev Muxammad Azamatovich

Qovushqoq-elastik to'ldiruvchili uch qatlamli plastinkalarning tebranishlari va to'liqin tarqalishi 3

Нарзуллоев Мухаммад Азаматович

Колебания и распространение волн в трехслойных пластинах с вязкоупругим наполнителем 21

Narzulloev Mukhammad Azamatovich

Vibration and wave propagation of three-layer plates with visco-elastic filler 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

NARZULLOYEV MUXAMMAD AZAMATOVICH

**QOVUSHQOQ-ELASTIK TO‘LDIRUVCHILI UCH QATLAMLI
PLASTINKALARNING TEBRANISHLARI VA TO‘LQIN TARQALISHI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of philosophy) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.4.PhD/T1073 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Buxoro Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) universitet veb-saytida ([www.https://bstu.uz/](https://bstu.uz/)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Teshaev Muhsin Xudoyberdiyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismayilov Kubaymurad –
texnika fanlari doktori, professor.

Yuldashev Sharofiddin Sayfiddinovich
texnika fanlari doktori, professor;

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat taransport universiteti

Dissertasiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 11-noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200100, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15 uy. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, E-mail: bstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 480, raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (200100, Buxoro shahri, Q. Murtazoyev ko'chasi, 15 uy. Tel.: (+99895) 604-44-70).

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil 25- oktabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «13» sentabrdagi №1 raqamli reestr bayonnomasi).



I.I. Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d, prof

R.A. Sabirova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.b.f.d. (PhD)

Z.I. Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d. (DSc), prof

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda texnika va qurilishda uchraydigan juda ko'p konstruksiya elementlari to'ldiruvchili uch qatlamli plastinkalardan tashkil topgan bo'lib, bunday uch qatlamli plastinkalar turli deformatsiyalanuvchan element yordamida boshqa detallar bilan o'zaro ta'sirlashganda ularning dinamik holatini tadqiq etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, uch qatlamli plastinkasimon konstruksiyalarda, asos bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan holda, to'liq tarqalishi masalalarini o'rganish, zamonaviy qurilish inshootlari, samolyotsozlik, kemasozlik va mashinasozlik qurilmalarida har qanday dinamik ta'sirlar natijasida vujudga keladigan rezonans holatlarini nihoyatda aniq tasavvur qilishga imkon beradi. Bu borada ko'pgina xorijiy davlatlarda, jumladan AQSh, Kanada, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda harakatlanuvchi transportlardagi tebranish va shovqinga qarshi kurashish muammolarini yechish uchun uch qatlamli plastinkalardan foydalanish samarali ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda ko'p qatlamli plastinkada xos to'liqlar tarqalishi va tashqi yuklanishi natijasida hosil bo'ladigan dinamik jarayonlar holatini o'rganishga hamda konstruksiyalarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, samolyot va harakatlanuvchi transport vositalarining ko'p qismlari ikki va uch qatlamli konstruksiyalardan tashkil topgan bo'lib, bu konstruksiyalarning tashqi kuchlar ta'siridagi dinamik holatini baholashga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy izlanishlar bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, konstruksiyalar asosan to'ldiruvchili uch qatlamli plastinka sifatida modellashtirilgan bo'lib, uch qatlamli plastinka to'ldiruvchisi bikirligi va qovushqoqlik xususiyatlarini hisobga olish bilan ularning dinamik holatini xarakterlovchi parametrlar (to'liq soni, chastotasi, faza tezligi va tebranishlar formasi) ni aniqlash usullarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga uch qatlamli plastinkada hosil bo'ladigan dinamik zo'riqishlar va deformatsiyalarni kamaytirish usullarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda hozirgi kunda uch qatlamli plastinkalarda hosil bo'ladigan salbiy holatlarni kamaytirishga va plastinka qatlamlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi qatlam bikirligini tanlash hisobiga konstruksiyaning mustahkamligini oshirish bo'yicha keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-sonli "O'zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹ gi Farmonida, jumladan, "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-4708-sonli 2020 yil 7 maydagi Prezident Qarorlarida vazifalar belgilangan. Shu jihatdan, deformatsiyalanuvchi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan uch qatlamli plastinkalarning tebranishlari masalalarida rezonans sohasidagi titrashlarni bartaraf etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16-maydagi PQ-158-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 30-maydagi PF-144-son "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish” va 2024-yil 17-apreldagi PQ-161-sonli “Bino va inshootlarning zilzilaga bardoshlilikini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va innovatsion texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika, inshootlar seysmodinamikasi va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Uch qatlamli plastinkalarda to‘lqin tarqalishi muammosi bilan bog‘liq nazariy hamda amaliy ilmiy tadqiqot ishlari xorijiy mamlakatlarning taniqli olimlari A.A. Ilyushin, Uayt, I.D. Grudev, A.G. Gorshkov, B.Ye Pobedrya, A.N. Guz, I.Ye. Troyanovskiy, R. Mitra, A.S. Volmir, F.G. Abdula-Zade, R. Aleksander, A.A. Vasin, M.V. Vasina, V.I. Jeltkov, Chan Txan Xay, Ye.A. Devyanin, A.B. Lenskiy, Yu.I. Novichkov, K. Kremer, A.N. Laputin, A.N. Antonov, Ya.A. Lugovaya, Li Xiaowei, C. Haut Roger, J. Altiero Nicholas, G. Vanneuville, M. Bourges, J.M. Garcier, M. Guillot, G. Poumarat va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Respublikamizda bu muammo bo‘yicha X.A. Raxmatulin, M.T. O‘razboev, T.R. Rashidov, Y.N. Muborakov, T.Sh. Shirinkulov, V.K. Kabulov, B.M. Mardonov, K.S. Sulonov, Sh.M. Mamatqulov, M.M. Mirsaidov, I.K. Mirzaev, F.B. Badalov, G.X. Xojmetov, A.A. Ishanxodjaev, T.M. Mavlonov, A. Abdusattorov, I.I. Safarov, M.X. Teshae, Sh.S. Yuldashev, Z.I. Boltaev va boshqa olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan va ko‘zlangan natijalarga erishilgan. Ular deformatsiyalanuvchan muhit bilan aloqada bo‘lgan uch qatlamli plastinkada turg‘un va turg‘un bo‘lmagan yuklanishlar masalalarini materiallarning reologik xususiyatlarini hisobga olib, kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o‘rganish usullarini rivojlantirishgan.

Shu bilan birga, V.V. Bolotin, Yu.N. Novichkov “ko‘p qatlamli mexanik qurilmalar” deb nomlangan asarda ko‘p qatlamli plastinkaning deformatsiyalanuvchi muhit bilan o‘zaro ta‘sirida bo‘lmagan va qovushqoqlikni hisobga olinmagan holda statika va dinamika masalalarini o‘rganganlar. A.G. Gorshkov, E.I. Starovoytov, A.V. Yarovaya “Qatlamli mexanik qurilmalarning qovushqoq-plastik elementlari” deb nomlangan asarda ko‘p qatlamli plastinkalarning xos va majburiy tebranishlari masalalarini yechishda maxsus funksiyalar yordamida asimptotik yechimlar olishgan. Ular tomonidan olingan chastotalar haqiqiy sonlar bo‘lib, hisoblashlarda asosan asimptotik formulalardan foydalangan.

Tavsiya etilayotgan dissertatsiya ishida yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qilingan. Dissertatsiya ishida deformatsiyalanuvchan muhit bilan o‘zaro ta‘sirida bo‘lgan uch qatlamli plastinkalarning harakat tenglamalarini materialning qovushqoqlik xususiyatlarini hisobga olib chiqarilgan hamda turli chegaraviy shartlar qo‘yilganda masalalar yechish uchun algoritm va dastur yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2017-2025 yillarga mo'ljallangan M.01.2017-raqamli "Mexanika va matematik fizika tenglamalarining tadbiqlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'ldiruvchili uch qatlamli plastinkaning qovushqoq-elastik xususiyatlarini hisobga olib, xos va majburiy to'lqinlarning tarqalishi masalalarini o'rganish (kompleks chastota, faza tezligi, to'lqin soni va tebranish formasini aniqlash, ko'chish amplituda-chastotasini xarakteristikasini qurish) uchun uslubiyot va algoritm ishlab chiqish hamda sonli natijalar olib, uni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

to'ldiruvchili uch qatlamli plastinkada to'lqin tarqalishi masalalarini materiallarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik qo'yilishi, yechish uslubiyoti va algoritmini ishlab chiqish;

deformatsiyalanuvchi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan to'ldiruvchili uch qatlamli plastinkada xos to'lqin tarqalishi masalalarini materiallarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik qo'yilishi, yechish uslubiyoti va algoritmini ishlab chiqish;

to'ldiruvchili uch qatlamli plastinkaning kompleks chastotalarini to'lqin soniga va to'ldiruvchi bikrligiga bog'liq o'zgarishiga solishtirma baho berish;

to'ldiruvchili uch qatlamli qovushqoq-elastik plastinkada majburiy to'lqin tarqalganda muhit ko'chishlari va kuchlanishlari amplitudalarini to'ldiruvchi bikrligi o'zgarishiga bog'liq tadqiq qilish va mavjud tajriba natijalari bilan solishtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida qovushqoq-elastik xususiyatlarga ega bo'lgan to'ldiruvchili uch qatlamli plastinka olingan.

Tadqiqotning predmetini qovushqoq-elastik to'ldiruvchili uch qatlamli plastinkada to'lqin tarqalishini o'rganish uchun ishlab chiqilgan uslubiyot va algoritmlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qo'yilgan masalalarni yechish uchun o'zgaruvchilarni ajratish, chekli elementlar usuli, Gauss va Myuller usullaridan hamda maxsus funksiyalardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uch qatlamli dissipativ bir jinsli bo'lmagan plastinkalarning tebranishlari va to'lqin tarqalishi masalalarini yechishda materialning relaksatsiya jarayonlarini hisobga oluvchi Bolsman-Voltera integral munosabatlarida Rjanitsin-Koltunov yadrosidan foydalanish metodikasi va algoritmi ishlab chiqilgan;

ilk marta uch qatlamli qovushqoq-elastik (dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan) plastinkalarning so'nuvchi tebranishlari va xos to'lqin tarqalishini to'lqin uzunligi, kompleks to'lqin soni va chastotasiga bog'liqligi kompleks argumentli trigonometrik va transendent funksiyalar orqali ifodalanuvchi dispersion tenglamasi olingan;

uch qatlamli dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan plastinkalarda tarqaladigan xos to'lqin uzunligi so'nish koeffitsenti birinchi, ikkinchi va uchinchi

xos chastotalarning mavhum qismlariga nomanoton bog‘liqligi sonli natijalar asosida topilgan;

uch qatlamli qovushqoq-elastik plastinkada majburiy to‘lqin tarqalganda muhit ko‘chishlari va kuchlanishlari amplitudalarining to‘ldiruvchi bikirligiga bog‘liq o‘zgarishida, dissipativ bir jinsli bo‘lmagan holatda, energiya dissipatsiyasining past chastotali sohollarda intinsiv bo‘lishi, yuqori chastotalarda esa intensivlikning pasayishi samarasi topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili uch qatlamli plastinkada to‘lqin tarqalishi natijasida hosil bo‘ladigan dispersion munosabatlarni va dekrement so‘nish koefitsientlarini topish, hamda ularning rezonans hodisasiga to‘ldiruvchi bikrligi ta‘sirini hisobga olib, metodika ishlab chiqilgan;

birjinslimas qovushqoq-elastik mexanik sistemalarda energiya dissipasiyasining intensiv bo‘lish nuqtalari va bu nuqtalarda global so‘nish koefitsienti (GSK) maksimumga, global rezonans amplituda (GRA) esa minumumga ega bo‘lishi topilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chegaraviy masalaning korrekt qo‘yilishi, keltirib chiqarilgan matematik ifodalarning qat‘iyligiga, asoslangan yechish usullaridan foydalanish va yechimlarning aniqligini baholashlar, hamda boshqa matematik qo‘yilgan masalalarning yechimlari bilan taqqoslashlar orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, deformatsiyalanuvchan qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili uch qatlamli plastinkada to‘lqin tarqalishini tadqiq qilishda ishlab chiqilgan metodika va algoritm bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati-ishlab chiqilgan metodika, algoritm va dastur yo‘l qurilishida qatlamlarning rezonans hodisalarini bartaraf etish uchun parametrlarning optimal qiymatlarini topishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotdagi to‘ldiruvchili uch qatlamli plastinkada to‘lqin tarqalishi va tebranishlari masalalarining dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini hisoblash usullari va algoritmi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

dissertatsiyada ishlab chiqilgan qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili uch qatlamli plastinkalarda xos to‘lqin tarqalishini ifodalovchi dispersion munosabatlardan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida bajarilgan OT-F4-01 “Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko‘p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo‘laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta‘sirida chiziqli bo‘lmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o‘rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2025-yil 8-iyuldagi 1/01-2410-sonli ma‘lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada, dinamik yuklanishlar ta‘siridagi qovushqoq suyuqlik oquvchi ko‘p qatlamli kompozit quvurlarda energiyani boshqarish imkoniyati yaratilgan;

mexanik sistemaning tashqi kuchlar ta‘siridagi vujudga keladigan ko‘chishlari va kuchlanishlari rezonans amplitudalarini kamaytirish uslubidan “Amu-Buxoro mashina kanlidan foydalanish boshqarmasi” tashkilotida mexanizmlarning rezonans ko‘chishlari amplitudasini kamaytirishda foydalanilgan (O‘zbekiston

Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 30-iyul 04/19 № 4214-son ma‘lumotnomasi). Natijada, 24 NDS (D6300-80) rusumli nasosning rezonans amplitudasini 27% gacha kamaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy nashrlarda chop qilingan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 105 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“To‘ldiruvchili uch qatlamli qovushqoq-elastik plastinkalarda to‘lqin tarqalishiga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida qovushqoq-elastik ko‘p qatlamli plastinkada xos to‘lqinlar tarqalishi va tashqi yuklanishi natijasida hosil bo‘ladigan dinamik jarayonlar holatini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar qisqacha tahlil qilingan. Adabiyotlar tahlili asosida xulosalar qilingan. To‘lqin dinamikasining qo‘llanilayotgan usullari va masalalari asosan dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan, ya‘ni qovushqoq-elastik ko‘p qatlamli plastinkalar uchun o‘rganilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, garmonik to‘lqinlar plastinkasimon qatlamli inshootlarga ta‘sir qilganda hosil bo‘ladigan dinamik kuchlanganlik-deformasiyalanganlik holati tarqaladigan to‘lqin uzunligiga bog‘liq ko‘rsatilgan. Bir qator hollarda muhit bilan bog‘lanishdagi inshootlarda garmonik to‘lqin ta‘sirlarida hosil bo‘ladigan rezonans holatlarni hisoblashda muhitning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini va dissipativ bir jinsli bo‘lmashlik xususiyatlarini hisobga olmaslik katta xatoliklarga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **“To‘ldiruvchili uch qatlamli uzun plastinkada to‘lqin tarqalishi masalasining qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritmi”** deb nomlangan ikkinchi bobida uzun to‘ldiruvchili uch qatlamli plastinkada to‘lqin tarqalishi masalasining qo‘yilishi, yechish uslubiyoti va algoritmi keltirilgan. Uch qatlamli to‘ldiruvchili plastinka dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan konstruktsiya sifatida olinib, to‘lqin taqalishi masalasi o‘rganilgan.



1-rasm. Uch qatlamli plastinkani hisob sxemasi

Faraz qilaylik, Dekart koordinatalar sistemasida (1-rasmda) to'ldiruvchili uch qatlamli qurilma berilgan bo'lsin. Uch qatlamli qurilmadan ajratib olingan elementar parallelepipedning dinamik harakatini ifodalovchi tenglamasi vektor ko'rinishda quyidagicha bo'ladi:

$$(\tilde{\lambda}_k + 2\tilde{\mu}_k) \text{grad div} \vec{u}_k - \tilde{\mu}_k \text{rot rot} \vec{u}_k + \vec{b}_k = \rho_k \frac{\partial^2 \vec{u}_k}{\partial t^2}. \quad (1):$$

Bu yerda, $\tilde{\lambda}_k$ va $\tilde{\mu}_k$ ($k = 1, 2, 3$ -qatlam parametrlariga mos keladi) operatorli elastiklik moduli, quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} \tilde{\lambda}_k f(t) &= \lambda_{0k} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{\lambda}^{(k)}(t - \tau) f(\tau) d\tau \right], \\ \tilde{\mu}_k f(t) &= \mu_{0k} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{\mu}^{(k)}(t - \tau) f(\tau) d\tau \right]; \end{aligned} \quad (2):$$

\vec{b}_k - hajmiy kuch ($b_k = 0$); $f(t)$ - ixtiyoriy funksiya; ρ_k - material zichligi, $R_{\mu}^{(k)}(t - \tau)$ va $R_{\lambda}^{(k)}(t - \tau)$ - relaksasiya yadrosi, λ_{0k}, μ_{0k} - materialning oniy elastiklik modullari, \vec{u}_j - ko'chish vektori.

Agar to'ldiruvchili uch qatlamli plastinkalardan tashkil topgan konstruksiya olinsa, u holda qatlamlar orasida qattiq mahkamlanganlik sharti qo'yiladi:

$$\begin{aligned} z = h_k; \sigma_{ZZK} = \sigma_{ZZ(\kappa+1)}; \sigma_{ZYK} = \sigma_{ZY(\kappa+1)}; \sigma_{XYK} = \sigma_{XY(\kappa+1)}; \\ u_k = u_{\kappa+1}; \vartheta_k = \vartheta_{\kappa+1}; w_k = w_{\kappa+1}. \end{aligned} \quad (3):$$

Agar qatlamlar orasida sirpanuvchanlik sharti (qatlamlar orasida qarshilik bo'lmasa) qo'yilsa, u holda:

$$\begin{aligned} r = a_k; \sigma_{ZZK} = \sigma_{ZZ(\kappa+1)}; \sigma_{ZYK} = \sigma_{ZYK} = 0; \\ \sigma_{XY(\kappa+1)} = \sigma_{XY(\kappa+1)} = 0; w_k = w_{\kappa+1}. \end{aligned} \quad (4):$$

Qatlamlar orasida qarshilik hisobga olinsa, u holda:

$$\begin{aligned} z = h_k; \sigma_{ZZK} = \sigma_{ZZ(\kappa+1)}; \sigma_{ZYK} = \sigma_{ZXK} = k_z \sigma_{ZZK}; \\ \sigma_{ZY(\kappa+1)} = \sigma_{ZX(\kappa+1)} = k_z \sigma_{ZZ(\kappa+1)}; w_k = w_{\kappa+1}. \end{aligned}$$

Plastinkaning erkin sathida kuchlanishdardan ozod bo'lish sharti qo'yiladi:

$$r = a_k; \sigma_{r r N} = 0; \sigma_{r \theta N} = 0; \sigma_{r z N} = 0. \quad (5):$$

Qatlamlar orasida massasiz element qo'yilgan bo'lsa, u holda chegaraviy (kontakt) sharti, tekis deformatsiya holati masalasi uchun, quyidagicha bo'ladi:

$$z = h_k; \sigma_{ZZK} = \sigma_{ZZ(\kappa+1)}; \sigma_{ZXK} = \sigma_{ZX(\kappa+1)}; \quad (6):$$

$$\begin{aligned}\sigma_{zzk} &= \bar{k}_z(u_{zk} - u_{z(k+1)}); \\ \sigma_{zxk} &= \bar{k}_x(u_{xk} - u_{x(k+1)}).\end{aligned}$$

Plastinkaning chegaralarida qatiq mahkamlanganlik shartini qo'yish mumkin. Buning uchun:

$$u_k = 0; \quad v_k = 0; \quad w_k = 0. \quad (7):$$

To'ldiruvchili plastinkaning $x = 0$ dagi uning tashqi sirtlariga perpendikulyar yo'nalishidagi ko'chishlari chegaralangan bo'lsin, u holda:

$$\sigma_{rr1} = 0; \quad u_{y1} = 0; \quad \sigma_{xy1} = 0. \quad (8):$$

Agar inshootdagi radial koordinata chekchizlika intilsa, u holda bo'ylama va ko'ndalang to'lqin potentsiallari Zommerfeldning yutilish shartini qanoatlantiradi. Chegaraviy va kontakt shartlaridan tashqari boshlangich shartlar ham qo'yiladi:

$$\begin{aligned}u_{xk}|_{t=0} = 0, \quad u_{yk}|_{t=0} = 0, \quad u_{zk}|_{t=0} = 0, \\ \frac{\partial u_{xk}}{\partial t}|_{t=0} = 0, \quad \frac{\partial u_{yk}}{\partial t}|_{t=0} = 0, \quad \frac{\partial u_{zk}}{\partial t}|_{t=0} = 0.\end{aligned} \quad (9):$$

Bu yerda, $u_{rj}, u_{\theta j}, u_{zj}$ - ko'chish vektorining komponentlari.

Qatlamlarning ko'chishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\vec{u}_j = \text{grad}\phi_j + \text{rot}\vec{\psi}_j, \quad \text{div}\vec{\psi} = 0.$$

Bu ifodaning Dekart koordinatalar sistemasidagi ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned}u_{xk} &= \frac{\partial \phi_k}{\partial x} + \frac{\partial \psi_{zk}}{\partial y} - \frac{\partial \psi_{yk}}{\partial z}, \\ u_{yk} &= \frac{\partial \phi_k}{\partial y} + \frac{\partial \psi_{xk}}{\partial z} - \frac{\partial \psi_{zk}}{\partial x}, \\ u_{zk} &= \frac{\partial \phi_k}{\partial z} + \frac{\partial \psi_{yk}}{\partial x} - \frac{\partial \psi_{xk}}{\partial y}.\end{aligned} \quad (10):$$

Bu yerda, ϕ_k -bo'ylama to'lqin potentsiali, $\vec{\psi}_k(\psi_{xk}, \psi_{yk}, \psi_{zk})$ -ko'ndalang to'lqin potentsiali. Agar (10) ifodani (1) ga qo'ysak, u holda quyidagi ko'rinishdagi xususiy hosilali kompleks koeffitsiyentli differensial tenglamalarni olamiz:

$$\begin{aligned}(1 - i\Gamma_{\lambda\mu k})\nabla^2\phi_k &= \frac{1}{C_{p0k}^2} \frac{\partial^2 \phi_k}{\partial t^2}, \\ (1 - i\Gamma_{\mu k})\nabla^2\vec{\psi}_k &= \frac{1}{C_{s0k}^2} \frac{\partial^2 \vec{\psi}_k}{\partial t^2}.\end{aligned} \quad (11):$$

Bu yerda, ∇^2 - Laplas operatori, $C_{p0k}^2 = (\lambda_{0k} + 2\mu_{0k})/\rho_k$, $C_{s0k}^2 = \mu_{0k}/\rho_k$ - mos ravishda bo'ylama va ko'ndalang to'lqin tezliklari,

$$\Gamma_{\mu k} = -i\Gamma_{\mu k}^{(c)}(\omega_R) + \Gamma_{\mu k}^{(s)}(\omega_R), \quad \Gamma_{\lambda\mu k} = -i\Gamma_{\lambda\mu k}^{(c)}(\omega_R) + \Gamma_{\lambda\mu k}^{(s)}(\omega_R).$$

Yuqoridagi (10) ifodalardan foydalanib quyidagi ko'rinishdagi kuchlanishlarni olamiz:

$$\sigma_{yk} = -\omega^2\phi + 2\left(-\frac{\partial^2 \phi_k}{\partial x^2} - \frac{\partial^2 \phi_k}{\partial z^2} + \frac{\partial^2 \psi_{xk}}{\partial y\partial z} - \frac{\partial^2 \psi_{zk}}{\partial x\partial y}\right), \quad (12):$$

$$\begin{aligned}
\sigma_{zk} &= -\omega^2\varphi + 2\left(-\frac{\partial^2\varphi_k}{\partial x^2} - \frac{\partial^2\varphi_k}{\partial y^2} + \frac{\partial^2\psi_{yk}}{\partial x\partial z} - \frac{\partial^2\psi_{xk}}{\partial x\partial z}\right), \\
\sigma_{xyk} &= 2\frac{\partial^2\varphi_k}{\partial x\partial y} + \frac{\partial^2\psi_{zk}}{\partial y^2} - \frac{\partial^2\psi_{zk}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2\psi_{xk}}{\partial x\partial z} - \frac{\partial^2\psi_{yk}}{\partial y\partial z}, \\
\sigma_{xz k} &= 2\frac{\partial^2\varphi_k}{\partial x\partial z} + \frac{\partial^2\psi_{yk}}{\partial x^2} - \frac{\partial^2\psi_{yk}}{\partial z^2} + \frac{\partial^2\psi_{zk}}{\partial y\partial z} - \frac{\partial^2\psi_{xk}}{\partial x\partial y}, \\
\sigma_{yzk} &= 2\frac{\partial^2\varphi_k}{\partial y\partial z} + \frac{\partial^2\psi_{xk}}{\partial z^2} - \frac{\partial^2\psi_{xk}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2\psi_{yk}}{\partial x\partial y} - \frac{\partial^2\psi_{zk}}{\partial x\partial z}.
\end{aligned}$$

(2.13) ni $x \rightarrow \infty$ da to'liqlar so'nuvchi bo'ladi deb, yechimni quyidagi ko'rinishda izlaymiz:

$$\begin{aligned}
\varphi_k &= C_{1k}e^{-r_{1k}x}e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))}, \\
\vec{\psi}_k &= \vec{C}_k e^{-r_{2k}x}e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))},
\end{aligned} \tag{13}$$

bu yerda, C_{1k} va $\vec{C}_k = \{C_{3k}, C_{4k}, C_{2k}\}^T$ -ixtiyoriy o'zgarmlar, $\omega = \omega_R + i\omega_I$ -kompleks chastota, γ, s -to'liqin sonlari, mos ravishda y va z o'qlari bo'yicha.

Agar (13) ni to'liqin tenglamasi (11) ga qo'yilsa, quyidagi r_{1k}, r_{2k} va γ, s, ω kataliklar orasidagi munosabatlarni olamiz:

$$\begin{aligned}
r_{1k} &= \sqrt{\gamma^2 + s^2 - \bar{k}^2\omega^2}, \\
r_{2k} &= \sqrt{\gamma^2 + s^2 - \omega^2}, \\
k &= \sqrt{(1 - 2\nu)/2(1 - \nu)}.
\end{aligned} \tag{14}$$

$\bar{k}^2 = k^2\Gamma_k$ parametr $k = 0$ dan boshlab o'zgaradi. Agar $\nu = 0.5$ bo'lsa, u holda $k^2 = 0.5$ bo'ladi. Agar $x \rightarrow \infty$ bo'lsa, to'liqinning so'nish sharti $\gamma^2 + s^2 > \omega^2$ bo'ladi. Agar olingan (13) yechimni e'tiborga olib, (11) va (12) ga qo'ysak, uch qatlamli plastinka va to'ldiruvchining ko'chish va kuchlanishlarini olamiz:

$$\begin{aligned}
u_{xk} &= [-r_{1k}C_{1k}e^{-r_{1k}x} - i(\gamma C_{2k} - sC_{4k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))}, \\
u_{yk} &= [-i\gamma C_{1k}e^{-r_{1k}x} + (r_{2k}C_{2k} - isC_{3k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))}, \\
u_{zk} &= [-isC_{1k}e^{-r_{1k}x} + (i\gamma C_{3k} - r_{2k}C_{4k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))}, \\
\sigma_{xk} &= [(2\gamma^2 + 2s^2 - \omega^2)C_{1k}e^{-r_{1k}x} \\
&\quad + 2i(r_{2k}\gamma C_{2k} - r_{2k}sC_{4k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))}, \\
\sigma_{yk} &= [(-2r_{1k}^2 + 2s^2 - \omega^2)C_{1k}e^{-r_{1k}x} \\
&\quad - 2(ir_{2k}\gamma C_{2k} + \gamma sC_{3k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))}, \\
\sigma_{zk} &= [(-2r_{1k}^2 + 2s^2 - \omega^2)C_{1k}e^{-r_{1k}x} \\
&\quad + 2(\gamma sC_{3k} + ir_{2k}sC_{4k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))}, \\
u_{yk} &= [-i\gamma C_{1k}e^{-r_{1k}x} + (r_{2k}C_{2k} - isC_{3k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))}, \\
u_{zk} &= [-isC_{1k}e^{-r_{1k}x} + (i\gamma C_{3k} - r_{2k}C_{4k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))}, \\
\sigma_{yzk} &= [-2\gamma sC_{1k}e^{-r_{1k}x} - (ir_{2k}sC_{2k} - ir_{2k}\gamma C_{4k} - (\gamma^2 \\
&\quad - s^2)C_{3k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))}, \\
\sigma_{yk} &= [(-2r_{1k}^2 + 2s^2 - \omega^2)C_{1k}e^{-r_{1k}x} - 2(ir_{2k}\gamma C_{2k} \\
&\quad + \gamma sC_{3k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))},
\end{aligned} \tag{15}$$

$$\sigma_{zk} = [(-2r_{1k}^2 + 2s^2 - \omega^2)C_{1k}e^{-r_{1k}x} + 2(\gamma s C_{3k} + ir_{2k} s C_{4k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))},$$

$$u_{yk} = [-i\gamma C_{1k}e^{-r_{1k}x} + (r_{2k}C_{2k} - isC_{3k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))},$$

$$u_{zk} = [-isC_{1k}e^{-r_{1k}x} + (i\gamma C_{3k} - r_{2k}C_{4k})e^{-r_{2k}x}]e^{i(\omega t - (\gamma y + sz))},$$

bunda $A_{jn}, A'_{jn}, \vec{B}_{jn}$, – ixtiyoriy o‘zgarmlar, $H_n^{(1)}(\alpha_j r)$ va $H_n^{(2)}(\alpha_j r)$ – Xankel funksiyalari $H_n^{(1),(2)}(\alpha r) = J_n(\alpha r) \pm iN_n(\alpha r)$.

Ixtiyoriy o‘zgarmlarni topish uchun chegaraviy shartlar (3)-(8) dan foydalansak, bir jinsli bo‘lmagan kompleks koeffisientli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz:

$$[C_2(c_{pj}, c_{sj}, R_{Ej}, a_j)]\{q\} = \{P_2\}. \quad (16):$$

Bu yerda, $\{q\}$ - ixtiyoriy o‘zgarmlardan tashkil topgan ustun vektor; $\{P_2\}$ - tashqi tushadigan to‘lqin ustun vektori. Bu (16) kompleks koeffisientli algebraik tenglamalar sistemasi Gaussning o‘zgaruvchilarni ketma-ket yo‘qotish usuli yordamida dissertasiyada ishlab chiqilgan algoritm bilan yechiladi.

Tashqi ta‘sir nolga teng bo‘lsa, u holda bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz. Tenglamalar sistemasining notrivial yechimi mavjud bo‘lishi shartidan quyidagi dispersion tenglamani olinadi:

$$\det[R(k, \omega)] = 0. \quad (17):$$

(17) tenglama Myuller usulida yechiladi.

Noturg‘un to‘lqinlar ko‘p qatlamli plastinkaga yuklanganda qo‘yilgan masalani yechish uchun vaqt bo‘yicha Laplasning integral almashtirishi qo‘laniladi: ($0 < t < T_1$),

$$f^L(s) = \int_0^\infty e^{-st} f(t) dt = L[f(t)]. \quad (18):$$


Teskari almashtirish quyidagi integral orali amalga oshiriladi:

$$f(t) = \frac{1}{2\pi i} \int_{\gamma - i\infty}^{\gamma + i\infty} e^{st} f^L(s) ds = L^{-1}[f^L(s)].$$

Integral maxsus nuqtadan o‘ng tomonda joylashgan yo‘l bo‘yicha olinadi.

Dissertasiya ishida deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining xususiy hosilali integro-differensial tenglamalarini yechish uchun muzlatish, o‘zgaruvchilarni ajratish, Laplas, Myuller, va Gauss usullari qo‘llanilgan. Matlab dasturi asosida sonli natijalar olingan.

Dissertasiyaning **“To‘ldiruvchili uch qatlamli qovushqoq-elastik plastinkada to‘lqin tarqalishi”** deb nomlangan uchinchi bobida garmonik xos to‘lqinlarning qovushqoq-elastik uch qatlamli to‘ldiruvchili plastinkada tarqalishi masalasi yechilgan. Oxz tekislik bilan ustma-ust tushgan, y koordinata esa qalinlik yo‘nalishida bo‘lgan plastinkani qaraymiz. Oz o‘qi yo‘nalishida plastinka bo‘ylab garmonik egilish to‘lqinlari tarqalayotgan bo‘lsin (2-rasm).



2-rasm. Uch qatlamli cheksiz uzun plastinkaning hisob sxemasi

Plastinkaning asosiy materiali $-\frac{b}{2} \leq y \leq \frac{b}{2}$ sohani egallaydi, har birining qalinligi hamma yerda bir xil $b/2$ bo‘lgan, qoplama esa $(-n + b/2 \leq y \leq -h; h \leq y \leq b/2 + h)$ sohani egallaydi. Aytaylik, E, ν, ρ asosiy qatlarning mos ravishda hajmiy siqilish moduli, siljish moduli va material zichligini ifodalasin. U holda asosiy qatlam uchun Reley-Lemb masalasining yechimi o‘zgaruvchilarni ajratish metodi yordamida olinadi va chastota ω , to‘lqin soni k bilan garmonik to‘lqin tarqalishidagi u, v, w (mos ravishda x, y va z o‘qlari yo‘nalishidagi) ko‘chishlar quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$u = 0; v = (\alpha A_1 ch \alpha x_2 - k C_1 sh \beta x_2) e^{i(\omega t - kz)},$$

$$w = (-ik A_1 ch \alpha y + i \beta C_1 sh \alpha y) e^{i(\omega t - kz)},$$

$-\frac{b}{2} \leq y \leq \frac{b}{2}$ uchun, bu yerda A_1 va C_1 —o‘zgarimaslar, va:

$$\alpha^2 = k^2 - \frac{\omega^2 \rho}{\lambda G + \frac{4}{3} \mu}; \quad \beta^2 = k^2 - \frac{\omega^2 \rho}{\mu}. \quad (19):$$

Izotrop material uchun chiziqli elastiklik nazariyasining kuchlanishlar va deformatsiyalar orasidagi munosabatiga asosan:

$$\sigma_{xz} = (G - 2/3\mu) A_1 (\alpha^2 - k^2) sh \alpha y;$$

$$\sigma_{yy} = A_1 [(G - 2/3\mu) (\alpha^2 - k^2) + 2\mu \alpha^2] sh \alpha y - 2\mu k \beta C_1 sh \beta y;$$

$$\sigma_{xy} = \sigma_{xx} = 0; \sigma_{yz} = -2\mu i k A_1 \alpha ch x y + i \mu C_1 (k^2 + \beta^2) ch \beta y;$$

$$\sigma_{yy} = A_1 [(G + 2/3\mu) (\alpha^2 - k^2) + 2\mu \alpha^2] sh \alpha y + 2\mu k \beta C_1 sh \beta y.$$

Harakat tenglamalarini qanoatlantiruvchi yuqori tashqi qatlam nuqtalarining ko‘chishlari uchun ifodalar umumiy holda quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$u = 0;$$

$$v = -\alpha c [\beta_1 sh \alpha_e (y - H) + F_1 ch \alpha_e (y - H)] + k [D_1 ch \beta_c (y - H) + M_1 sh \beta_c (y - H)];$$

$$w = ik [\beta_1 ch \alpha_e (y - H) + F_1 sh \alpha_e (y - H)] - i \beta_c [D_1 sh \beta_c (y - H) + M_1 ch \beta_c (y - H)].$$

Bu yerda β_1, D_1, F_1, M_1 — o‘zgarimaslar, α_c va β_c parametrlar (19) ga o‘xshash quyidagi munosabatlardan aniqlanadi:

$$\alpha_c^2 = k^2 - \frac{\omega^2 \rho_c}{G_e + \frac{4}{3} \mu_c}; \quad \beta_c^2 = k^2 - \frac{\omega^2 \rho_c}{\mu_c}.$$

Bu yerda c indeks qoplama materialining xarakteristikasiga tegishli.

$-H = -(b_1 + b/2) \leq y \leq -h$ soha uchun eguvchi to'liqinning antisimmetriklik xossasidan foydalanib, shunga o'xshash bog'lanish oilalarini o'lchash mumkin:

$$U(y) = u(-y); \quad v(y) = v(-y); \quad w(y) = -w(-y), \quad (20):$$

(20) yechimning xossalarini hisobga olib, bundan keyin $0 \leq y \leq H$ sohani tekshirish bilan chegaralanamiz. Erkin sirt $y = H$ da quyidagi chetki shartlar bajarilishi kerak:

$$\sigma_{xy} = \sigma_{yy} = \sigma_{yz} = 0 \quad (21):$$

Bundan tashqari, $y = b$ kontakt sirti ustida ko'chishlarning uzluksizligi sharti:

$$u(b^-) = u(b^+); \quad v(b^-) = v(b^+), \quad w(b^-) = w(b^+), \quad (22):$$

va tenglik sharti:

$$\sigma_{xy}(b^-) = \sigma_{yy}(b^+); \quad \sigma_{yy}(b^-) = \sigma_{xy}(b^+); \quad \sigma_{yz}(b^-) = \sigma_{yz}(b^+); \quad (23):$$

bu yerda, ($b=b/2$), bajarilishi kerak. (21), (22), (23) shartlar asosida va simmetriklik shartiga ko'ra oltita (A_1, B_1, C_1, D_1, F_1 va M_1) o'zgarmlarga nisbatan oltita bir jinsli chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz: $[C]\{q\} = \{0\}$. Bu tenglamalar sistemasi notrivial yechimlarga ega bo'lishi uchun sistema koeffisientlaridan tuzilgan matrisaning determinanti nolga teng bo'lishi kerak:

$$F(\Omega) = [C] = 0. \quad (24):$$


Bu yerda:

$$\begin{aligned} C_{11} &= \alpha c h a k; \quad C_{12} = -k c h \beta k; \quad C_{13} = \alpha_c s h \alpha_c (b - H); \\ C_{14} &= \alpha_c c h \alpha_c (b - H); \quad C_{15} = k c h \beta_c (b - H); \quad C_{16} = -k s h \beta (b - H); \\ C_{21} &= -k s h a b; \quad C_{22} = \beta s h \beta h; \quad C_{23} = -k c h \alpha_c (b - H); \\ C_{24} &= -k c h \alpha_c (b - H); \quad C_{25} = \beta_c s h \beta_c (b - H); \quad C_{26} = \beta s h \beta_c (b - H); \\ C_{31} &= \alpha_1 s h a b; \quad C_{32} = -2 \mu k \beta s h \beta b; \quad C_{33} = -\alpha_2 c h \alpha_c (b - H); \\ C_{34} &= -\alpha_2 c h \alpha_c (b - H); \quad C_{35} = 2 \mu_c k \beta s h \beta_c (b - H); \\ &] \quad C_{41} = -2 \mu k \alpha c h a h; \quad C_{42} = \mu \alpha_3 c h \beta h; \\ C_{43} &= -2 \mu_c k \alpha_c s h \alpha_c (b - H); \quad C_{44} = -2 \mu_c k \alpha_c c h \alpha_c (b - H); \\ C_{45} &= \mu_c \alpha_1 c h \beta_c (b - H); \quad C_{46} = \mu_c \alpha_1 s h \beta_c (b - H); \\ C_{51} &= C_{52} = C_{54} = C_{55} = 0; \quad C_{53} = -\alpha_3; \quad C_{56} = -2 \mu_c k \beta_c; \\ C_{61} &= C_{62} = C_{63} = C_{66} = 0; \quad C_{64} = -2 \mu_c k \alpha_c; \quad C_{65} = \mu_c \alpha_c. \end{aligned}$$

$$\alpha_1 = G(k^2 - \alpha^2) - \frac{2}{3} \mu (k^2 + \alpha^2); \quad \alpha_2 = k^2 + \alpha^2;$$


$$\alpha_3 = G(k^2 - \alpha_c^2) - \frac{2}{3} \mu_c (k^2 + 2\alpha_c^2); \quad \alpha_4 = k^2 + \beta_c^2,$$

(24) transendent tenglama Myuller metodi yordamida sonli yechiladi.



3-rasm. Chastotaning haqiqiy va mavhum qismini qalinlikga bog‘liq o‘zgarishi

(21) tenglama Myuller metodi yordamida yechildi. Barcha hollarda o‘rta qatlam va qoplama uchun Puasson koeffisienti mos ravishda 0,30 va 0,25 deb qabul qilindi; $C_{pc} = 5400 \text{ m/s}$; $C_{sc} = 3195 \text{ m/s}$; $C_{lpc} = 2300 \text{ m/s}$; $C_{spk} = 2300 \text{ m/s}$; $\nu_c = 0,30$; $\nu_{pk} = 0,35$; $h/b = 0,1$, $\rho_{cp} = \frac{\rho_{pk}}{\rho_c} = 0,4452$ (qoplama zichligining o‘rta qatlam zichligiga nisbati).



4- rasm. So‘nish koeffisietini to‘lqin uzunligiga bog‘liq o‘zgarishi

Qoplamaning reologik xossalari $A = 0,048$; $\beta = 0,05$; $\alpha = 0,1$. Keltirilgan qiymatlar dyuralevoydan tayyorlangan o‘rta qatlam uchun va akrilondan tayyorlangan qoplama uchun keltirilgan. Koplama (plastinkalar) elastik, to‘ldiruvchi qovushqoq-elastik, ya‘ni konstruksiya dissipativ bir jinsli emas.

